

Date: 25th June-2026

**O'QUV AMALIYOTI DARSLARINI O'QITISHDA KASBIY
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH**

Ibragimov Xayriddin Tursunovich

Buxoro shahar 1-son texnikumi maxsus fan
o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quv amaliyoti darslarining talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning zamonaviy usullari, innovatsion pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'quv amaliyoti, kasbiy kompetensiya, ta'lim sifati, innovatsion texnologiyalar, amaliy, ko'nikma, kompetensiyaviy, yondashuv.

Kirish.

Bugungi kunda ta'lim tizimida malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o'quv amaliyoti darslari alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv amaliyoti nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularni amaliyotda qo'llash hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat-qiladi.

Asosiy-qism

Kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar yig'indisidir. O'quv amaliyoti darslari aynan shu kompetensiyalarni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

O'quv-amaliyoti-jarayonida-talabalar:

nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'laydi;

kasbiy vazifalarni mustaqil bajarishga o'rganadi;

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

jamoada ishlash va muloqot madaniyatini shakllantiradi;

mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, loyiha metodi, keys-stadi, muammoli ta'lim, STEAM texnologiyasi va interfaol metodlar talabalarning faolligini oshiradi hamda amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, o'quv amaliyoti darslarini ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar va muassasalar bilan hamkorlikda tashkil etish talabalarni real ish muhiti bilan tanishtiradi.

Bu esa ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini yanada oshiradi.

Natijalar-va-muhokama: Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim talabalarning kasbiy kompetensiyalarini samarali rivojlantiradi. O'quv amaliyoti davomida talabalar kasbiy faoliyatning mazmuni va xususiyatlarini chuqurroq anglaydi,



Date: 25th June-2026

nazariy bilimlarini mustahkamlaydi hamda mehnat bozorida talab etiladigan ko'nikmalarga-ega-bo'ladi.

Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlarning muntazam tashkil etilishi talabalarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari o'quv amaliyoti darslarining samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

1) amaliyotning-maqсадli-tashkil-etilishi; zamonaviy-texnik-vositalardan-foydalanish;

2) ishlab-chiqarish-korxonalari-bilan-hamkorlik;

3) individual-yondashuv;

4) muntazam-monitoring-va-baholash;

5) talabalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Mazkur omillar o'quv amaliyotining sifatini oshirishga va kasbiy kompetensiyalarning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'quv amaliyoti darslari talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish va kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali va zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid farmon va qarorlari.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalar". Ishmuhammedov R.
4. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari". Muslimov N. "Kasb ta'limi metodikasi".

